Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320268

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

INFLYATSIYANING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Millat Umidi universiteti BA 203 guruh talabasi **ISKANDAROV ABDUGANI**
Ilmiy rahbar ; Millat umidi universtiteti xalqaro biznes va moliya kafedrasi professori i.f.d. **UMAROVA MUQADDAS**

Annotatsiya
Ushbu maqolada inflyatsiya tushunchasining iqtisodiy mazmuni, uning asosiy sabablari va turlari, shuningdek, inflyatsiyaga qarshi davlat siyosatining yo'nalishlari ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, uni jilovlashda fiskal va pul-kredit siyosatining o'rni yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya jarayonlarini barqarorlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi.

Annotation This article provides a scientific analysis of the economic content of the concept of inflation, its main causes and types, as well as the directions of state policy against inflation. The article covers the socio-economic consequences of inflation, the role of fiscal and monetary policy in its containment. Also, the reforms carried out in the Republic of Uzbekistan on stabilization of inflation processes will be analyzed.

Аннотация В данной статье будет проведен научный анализ экономического содержания понятия инфляция, ее основных причин и видов, а также направлений государственной антиинфляционной политики. В статье освещаются социально-экономические последствия инфляции, роль фискальной и денежно-кредитной политики в ее сдерживании. Также будет проведен анализ проводимых в Республике Узбекистан реформ по стабилизации инфляционных процессов.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, deflyatsiya, pul-kredit siyosati, fiskal siyosat, narxlar barqarorligi, iste'mol narxlari indeksi, inflyatsion targetlash, Markaziy bank, iqtisodiy o'sish.

Kirish Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiya iqtisodiy barqarorlikni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Inflyatsiya deganda mamlakatdagi umumiy narxlar darajasining barqaror o'sishi va shu sababli pul birligining xarid qobiliyatining pasayishi tushuniladi. Ushbu jarayon deyarli barcha mamlakatlarda muayyan darajada mavjud bo'lib, iqtisodiy siyosatning asosiy e'tibori uni nazorat qilish va mo'tadil darajada ushlab turishga qaratiladi. Inflyatsiya jarayonlari iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish hajmi, bandlik, investitsiyalar, pul muomalasi va aholi turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, inflyatsiyani chuqur tahlil qilish va unga qarshi samarali choralarni ishlab chiqish har bir davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir. Ushbu maqolada inflyatsiyaning mohiyati, sabablari, turlari va oqibatlari,

Published: 05.06.2026
Cite this article: Iskandarov Abdugani, Umarova Muqaddas (2026). Inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320268
© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

shuningdek, inflyatsiyaga qarshi siyosatning mazmuni hamda O‘zbekiston misolida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Inflyatsiyaning mohiyati va sabablari Inflyatsiya — bu iqtisodiyotda pul massasi bilan tovar va xizmatlar hajmi o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasida umumiy narxlar darajasining oshishidir. Oddiy qilib aytganda, muomalada tovarlardan ko‘ra ko‘proq pul bo‘lsa, ularning qiymati pasayadi, natijada pul qadrsizlanadi. Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Ular orasida eng muhimlari quyidagilardir: ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi; davlat byudjeti defitsitining emissiya yo‘li bilan qoplanishi; ortiqcha iste’mol talabi; import narxlarining o‘sishi (import inflyatsiyasi); kreditlashning haddan tashqari kengayishi; psixologik omillar va kutilmalar. Inflyatsiya jarayonlari ko‘pincha pul siyosatining izchilligi buzilganda yoki fiskal intizom sustlashganda kuchayadi. Shu bois, davlat iqtisodiy boshqaruvda monetar va fiskal choralarni muvofiqlashtirishi zarur. Inflyatsiyaning turlari Iqtisodiy nazariyada inflyatsiya bir necha mezonlar asosida tasniflanadi. Narxlar o‘sish sur’atiga ko‘ra: Mo‘tadil inflyatsiya – narxlarning yiliga 5–10% gacha o‘sishi, iqtisodiyot uchun qisman foydali bo‘lishi mumkin; Tezlashgan inflyatsiya – narxlarning 10–50% atrofida o‘sishi; Giperinflyatsiya – narxlarning oyiga 50% dan ko‘proq o‘sishi, bu holatda pul butunlay qadrsizlanadi. Kelib chiqishiga ko‘ra: Talab inflyatsiyasi – tovar va xizmatlarga talab taklifdan oshib ketganda yuzaga keladi;

1- rasm



Taklif inflyatsiyasi – ishlab chiqarish xarajatlarining o‘sishi (ish haqi, xomashyo narxi, energiya resurslari) natijasida narxlar ko‘tariladi. Namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra: Ochiq inflyatsiya – narxlar erkin o‘sadi; Yashirin inflyatsiya – narxlar sun’iy ravishda ushlab turiladi, ammo tovar tanqisligi vujudga keladi.

Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari Inflyatsiya iqtisodiyot va jamiyat hayotiga ko‘plab salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, pulning qadrsizlanishi aholi real daromadlarini kamaytiradi, ijtimoiy tengsizlik kuchayadi. Ikkinchidan, ishlab chiqarish rejalashtirish va investitsiya faoliyatini murakkablashtiradi. Uchinchi jihatdan, inflyatsiya milliy valyutaga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi, jamg‘armalarni kamaytiradi Biroq, mo‘tadil darajadagi inflyatsiya iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu holatda narxlarning ozgina o‘sishi ishlab chiqaruvchilarni yangi investitsiyalar kiritishga undaydi. Inflyatsiyaga qarshi siyosatning mazmuni Inflyatsiyaga qarshi siyosat — bu davlat tomonidan narxlar barqarorligini saqlash va pul qadrsizlanishini jilovlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi inflyatsiyani mo‘tadil darajada ushlab turish, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va aholi farovonligini himoya qilishdan iborat. Inflyatsiyaga qarshi siyosat uch asosiy yo‘nalishda olib boriladi: Pul-kredit siyosati. Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Unga quyidagilar kiradi: Foiz stavkalarini oshirish orqali kreditlashni cheklash; Pul emissiyasini nazorat qilish; Zaxira me’yorlarini oshirish; Ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish (qimmatli qog‘ozlarni sotish orqali pul massasini qisqartirish). Fiskal siyosat. Bu yo‘nalish davlat byudjeti va soliqlar tizimi orqali inflyatsiyani boshqarishga qaratilgan. Byudjet defitsitini kamaytirish; Davlat xarajatlarini optimallashtirish; Soliq yukini adolatli taqsimlash; Ortiqcha davlat xarajatlarini qisqartirish orqali talabni kamaytirish. Strukturaviy siyosat. Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish, importga qaramlikni kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali inflyatsion bosimni kamaytirishga qaratilgan. O‘zbekiston tajribasida inflyatsiyani jilovlash O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikdan so‘ng iqtisodiy islohotlar jarayonida turli darajadagi inflyatsiya bosqichlarini boshdan kechirdi. 1990-yillar o‘rtalarida narxlarning keskin o‘sishi kuzatilgan bo‘lsa, 2000-yillardan boshlab barqaror iqtisodiy o‘sish va pul-kredit siyosatini mustahkamlash natijasida inflyatsiya darajasi izchil pasaytirildi. So‘nggi yillarda Markaziy bankning asosiy e’tibori “inflyatsion targetlash siyosati”ga qaratilgan. Bu yondashuvda inflyatsiyaning aniq maqsadli ko‘rsatkichi belgilanadi (masalan, 5–7%) va barcha iqtisodiy chora-tadbirlar shu maqsadga yo‘naltiriladi. 2020–2024-yillar oralig‘ida mamlakatda inflyatsiya darajasi 14 foizdan 8–9 foizgacha pasaydi. Bunga qat’iy monetar siyosat, davlat byudjeti defitsitini kamaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va raqobatni kuchaytirish siyosati yordam berdi. Shuningdek O’zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan inflyatsiyani pasaytirish strategiyasi doirasida moliya bozorlarini rivojlantirish energiya resurslari bozorini liberallashtirish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish choralari ko’rilmoqda

Biroq, mo‘tadil darajadagi inflyatsiya iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu holatda narxlarning ozgina o‘sishi ishlab chiqaruvchilarni yangi investitsiyalar kiritishga undaydi.



Xulosa

Inflyatsiya – bu iqtisodiy barqarorlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab hodisa bo‘lib, uni to‘liq bartaraf etish imkonsiz. Ammo uni mo‘tadil darajada ushlab turish davlatning samarali iqtisodiy siyosati orqali amalga oshiriladi. Inflyatsiyani nazorat qilish uchun pul-kredit, fiskal va strukturaviy siyosatlar o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda olib borilishi lozim. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy islohotlarning izchilligi, Markaziy bank siyosatining shaffofligi va davlat moliya intizomining mustahkamlanishi inflyatsiyani barqaror past darajada ushlab turish imkonini beradi. Kelgusida iqtisodiyotda raqobatni oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va eksportni rag‘batlantirish

inflyatsiyani yanada jilovlash uchun muhim shart hisoblanadi.Shuningdek inflyatsiya darajasining barqaror saqlash nafaqat makroiqtisodiy siyosatning to’g’ri yuritilishiga balki aholi ishonchi va kutilmalariga bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Keynes, J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money.
2. Friedman, M. *Money Mischief: Episodes in Monetary History.* Harcourt
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari, 2024-yil.
4. G‘ulomov S., Xo‘jayev Sh. *Makroiqtisodiyot asoslari.* Toshkent: TDIU.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, “Inflyatsion targetlash siyosatini
Bosqichma – bosqich joriy etish to’g’risidagi qarori

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti